

---

## PEDAGOGICAL AND AGE FEATURES OF TEACHING UZBEK LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE

Ergasheva Gulruxsor Nurmatzod

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

[flowerface0706@gmail.com](mailto:flowerface0706@gmail.com)

**Annotatsiya.** Bugungi kunda til o‘rganish va o‘rgatish har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shiddatli rivojlanish dunyo tillariga ham ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Bu jarayon o‘z –o‘zidan ona tilimizni saqlab qolish va rivojlantirishga katta e’tibor berish zaruratini tug‘dirmoqda. Maqolada o‘zbek tilini xorijiy va ikkiknchi til sifatida o‘qitishning pedagogik va psixologik xususiyatlari, yosh xususiyatlari, tasnifi keltirilgan. Bundan tashqari, o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** til o‘rgatish, xorijiy til, o‘zbek tili, daraja, o‘rganuvchilarining yosh xususiyatlari, til o‘zlashtirish, integrativ yondashuv.

**Abstract.** Today, language learning and teaching is more important than ever. Rapid development is also affecting the world's languages. This process in itself makes it necessary to pay more attention to the preservation and development of our native language. The article describes the pedagogical and psychological features, age characteristics, classification of teaching Uzbek as a foreign and second language. In addition, some comments were made on the teaching of the Uzbek language

**Keywords:** Teaching language, foreign language, uzbek language, grade, learner's age, language acquistion, integrative approach.

**Аннотация.** Сегодня изучение и преподавание языков важны как никогда. Быстрое развитие также влияет на языки мира. Этот процесс сам по себе



RESEARCH  
SUPPORT CENTER

заставляет больше внимания уделять сохранению и развитию нашего родного языка. В статье описаны педагогические и психологические особенности, возрастные особенности, классификация обучения узбекскому языку как иностранному и второму языку, а также даны некоторые комментарии по преподаванию узбекского языка.

**Ключевые слова:** язык обучения, иностранный язык, узбекский язык, класс, возраст учащегося, овладение языком, интегративный подход.

### Kirish.

Har qanday o‘quv jarayonini, ta’lim jarayonini tashkil etish o‘ziga xos murakkabliklar va o‘ziga xos asoslarga ega. O‘rganish va o‘rgatish tarixida juda ko‘p shakl va usullarni ixtiro qilgan insoniyat, ulardan foydalanib sayqallab kelgan va bu jarayonlar hali hanuzgacha uzlusiz tarzda davom etib kelmoqda va davom etadi.

Zamonaviy hayotimiz dinamikligini hisobga olgan holda aytishimiz mumkinki, bilim, ko‘nikma, tajriba va qobiliyatlar ham o‘zgaruvchan hodisalar bo‘lib, ular doimiy rivojlanib borib o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun o‘quv jarayoni axborot makonidagi yangilanishlarni hisobga olgan holda qurilishi kerak. Shunday qilib, ta’lim jarayonining mazmuni nafaqat bilim, ko‘nikma, malakalarni egallah zarurati, balki shaxsning aqliy jarayonlarini rivojlantirish, axloqiy va huquqiy e’tiqod va harakatlarni shakllantirishdir.

### O‘zbek tilining o‘rganilishi.

Hozirgi kunda dunyoda 50 milliondan ortiq insonlar o‘zbek tilida so‘zlashadilar. Shundan 28 millioni O‘zbekiston hududiga, 10 millioni Afg‘oniston hududiga, qolgan miqdori esa Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya, Pokiston, Avstraliya, Kavkaz orti va Rossiyaga to‘g‘ri keladi. Bu hududlarda yashaydigan o‘zbeklarning tili yashaydigan hududidagi gegemon tilning ta’sirida o‘zgarishlarga



uchragan bu o‘zgarishlar nafaqat leksik qatlam ga balki fonetik va morfologik qatlamga ham tegishli.

Mamalakatimizda til siyosatiga munosabat ijobiy tomoga o‘zgarib borayotgan bir vaqtda o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish zarurati ham oshib bormoqda bu esa o‘z - o‘zidan o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning ilmiy asoslarini metodik asoslarni tadqiq etishni taqazo etmoqda. O‘zbek tilini, umuman, turkiy tilini o‘rganish va unga qiziqish ilk bora 15- asrda nemislar tomonidan amalga oshirilgan deb qayd etadi Jo‘loboy Eltazarov o‘zining “ Germaniyada o‘zbek tilining o‘qitishi” deb nomlangan maqolasida. Keyingi ishlarda esa o‘zbek tilini o‘rganish rus tili va ingлиз tili ta’sirida amalga oshirilgan, chunki 20- asrning o‘rtalariga qadar o‘zbek tilining o‘z xususiyatlaridan kelib chiqqan holatdagi qonun - qoidalar majmuyi mavjud emas edi. Ya’ni o‘zbek tilining akadem grammatikasi yaratilmagan edi.

O‘zbek tilini o‘qitish boshqa turkiy tillar singari o‘ziga xoslikka ega va maxsus metodika va usullarni talab etadi. Demak, o‘quvchilarning til tajribasi chet til o‘rganishda g‘ov bo‘lishi (salbiy ta’sir — *interferensiya*) yoki yordam berishi (ijobiy ta’sir — *transpozitsiya*) kuzatiladi. Binobarin, xorijiy til muallimi o‘quvchilaming ona tilisini, ikkinchi tilni va o‘rganilayotgan chet tilni amaliy va nazariy puxta bilmog‘i darkor. Shuningdek, o‘qituvchining o‘qitish metodikasidan atroflicha xabardor bo‘lishi talab qilinadi. Avvalo, o‘rganuvchi yoshi, qiziqishi va izchillik asosida til o‘rganishga kundalik sarflaydigan vaqt miqdori, inglizcha muhit kabilar muhim bo‘lsa, foydalilaniladigan darslik sifati, mahoratli va bilimli o‘qituvchi va til o‘rganishdagi to‘g‘ri yondashuv usullari kabilarning ham yangi til o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **O‘qitishning nazariy asoslari.**

Xorijiy tilni o‘rganish jarayoning didaktik, metodik, psixologik asosida kechishi tadqiqiotchilar tomonidan isbotlangan. Bu prisiplarga lingvistik prinsipni ham qo‘sish maqsadga muvofiq chunki, didaktik, metodik va psixologik prinsiplarning yuzaga chiqishida lingvistik omillarning o‘rni beqiyos, hattoki lingvistik prinsipsiz



qolgan uchta prinsip amalga oshmaydi desak ham xato qilmagan bo‘lamiz. Til o‘rganish axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va uzatish jarayoni o‘ziga xos psixologik, fiziologik jarayonlar asosida amalga oshadi. Bu amallarning natijasini esa lingvistik prinsip namoyon etadi.

Androgogik ta’lim jarayonida madaniyat darslarini tashkil etish til o‘rganuvchidan o‘ziga xos kognitiv bilimlarni talab etadi. Bu bilimlarning darajasi o‘rganuvchi lisonining imkoniyatlari orqali amalga oshadi. Umuman olganda, androgogik ta’limda o‘zbek tilini o‘rganuvchilarni quyidagicha tasniflash va shu tasnif asosida o‘qitish maqsadga muvofiq.

1. ***O‘zbek tili muhitida o‘zbek tilini o‘rganuvchilar.***
2. ***Qardosh til egasi sifatida o‘zbek tilini o‘rganuvchilar***
3. ***Xorijlik o‘zbek tilini o‘rganuvchilar.***

***O‘zbek tili muhitida o‘zbek tilini o‘rganuvchilar.*** Bunday til o‘rganuvchilarda til konstruksiyalari shakllangan va ular doimiy o‘zbek tili muhitida yashaganliklari sababli tilni o‘zlashtirish jarayoni nisbatan oson va tezroq kechadi. Chunki miya o‘zbek tilini muhitida “yashashi” uchun sharoit mavjud, o‘zbek madaniyati ichida yashaydilar. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, til o‘rganish jarayonida madaniyat o‘rganuvchining ona tili va o‘rganayotgan tili o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini ado etib kognitiv xususiyatlarga ta’sir etadi. O‘zbekiston hududida yashayotgan 120 ga yaqin millat elatlarni va o‘zbek tili muhitida yashayotgan o‘zbeklarni bu guruhga kiritish mumkin.

***Qardosh til egasi sifatida o‘zbek tilini o‘rganuvchilar.*** Bu tipga mansub til o‘rganuvchilarda leksik , madaniy va grammatik kompetensiyalarni shakllantirish oson, biroq talaffuz bilan muammolar tez-tez uchrab turadi. Bu ham o‘rganuvchining ona tilisi qaysi lahjaga masubligi bilan aloqador. Masalan, ona tilisi turk tili bo‘lgan o‘rganuvchilarni talaffuzida va tinglab tushunish jarayonida g-g‘ q-k, o, o‘ i, a-e harflarini farqlashda muammo uchraydi. Bu esa singormanizm talabining alifboda aks etishi bilan bog‘liq masala, ya’ni i unlisining yumshoq va qattiq talaffuzini alifbo



orqali ifodalash mumkin, ammo o‘zbek tilida ba’zi o‘rinlarda bu imkonsiz. Masalan, **inson** so‘zi va **bilim** so‘zidagi **i** unlisi ikki xil talaffuz etiladi, ammo bitta tovush bilan ifodalaniladi, shuning uchun ham bu tipdagi til o‘rganuvchilarning talaffuz va yozma mashqlarga ehtiyoji baland. Bu tipdagi o‘rganuvchilarda, leksik, grammatik, madaniy aspektlarni o‘zlashtirish nisbatan oson va o‘qituvchining ishini “bu bizda ham bor” iborasi osonlashtiradi. Bu tipdagilar A darajani (A1 A2) ikki, ikki yarim oyda o‘zlashtirishlari mumkin. Bu guruhga qozoq, qirg‘iz turk, ozarbayjon, turkman, boshqird kabi til egalari ham mansubdirlar.

**Xorijlik o‘zbek tilini o‘rganuvchilar.** Bu tipdagi o‘rganuvchilar har bir til bo‘yicha alohida tadqiq etishni talab etadi. Ingliz zabonlar uchun o‘zbek tili nemis, rus, fransuz, ispan zabonlar va boshqalar uchun o‘zbek tilini o‘rgatish o‘ziga xos yondashuvni taqazo etadi, chunki o‘zbek tili muhitidan uzoda bo‘lgan o‘rganuvchilarni shu til muhitiga olib kirish eng katta va muhim masala hisoblanadi. Dastlabgi bosqichning ilk darslarida vositachi tilning roli yuqori bo‘ladi, biroq o‘qituvchi bu holni uzoq davom ettirsa o‘zbek tilini o‘rganish jarayoni ham shuncha uzoq davom etadi. Alifbe va talaffuzdan boshlanadigan bu bosqich o‘qituvchidan alohida va chuqur yondashuvni talab etadi. Maqsadli yondashuv natijasi esa, albatta, zavqlantiradi.

Hozirgi kunda dunyoning qaysi nuqtasiga bormang o‘zbeklarni uchratish mumkin. O‘zbekistondan borib chet davlatlarda yashab qolayotgan oiladalarda dolzarb muammolardan biri farzandidning yashayotgan davlati tilini o‘zlashtirish va shu tilda so‘zlashib o‘zbek tilini unutib qo‘yayotgani yoki umuman gapirmayotganligidir bunga ham bir necha sabalar bor:

- *Yashayotgan davlati tilini mukammal o‘rganish maqsadida amaldagi tilda doimiy so‘zlashish;*
- *O‘zbek tili muhitidan uzoqlashish;*
- *O‘zbek tilida so‘zlashish zaruratining yo‘qligi;*
- *O‘zbek tilini o‘rganishi uchun manbalarning yetarli emasligi.*



Bugungi kunga kelib aksariyat o‘zbekistonlik xorijda yashayotgan yurtdoshlarimiz bolalarining o‘zbek tilida ham so‘zlashishlarini o‘zbek tilini ham o‘rganishlarini xohlaydilar, biroq shu kunga qadar bolalar uchun o‘zbek tilini o‘rgatish va o‘qitishga mo‘ljallangan yetarlicha resursrlar mavjud emasligi muammoni yanada chuqurlashtirmoqda

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda til o‘rganuvchilarning yosh xususiyatlarini quyidagicha tasniflashimiz mumkin

1. 7- 10 yoshgacha o‘zbek tilini o‘rganuvchilar
2. 10- 15 yoshgacha o‘zbek tilini o‘rganuvchilar
3. 16-55 yoshgacha o‘zbek tilini o‘rganuvchilar ( asosan ta’lim, biznes, sayohat, qiziqish, maqsadli faoliyatni amalga oshirish maqsadida o‘rganuvchilar)

*Yeti yoshdan o‘n yoshgacha* bo‘lgan til o‘rganuvchilar uchun o‘yin va ko‘rgazmali metodlardan faol qo‘llaniladi. Bolalar uchun o‘zbek tili o‘rgatishda musiqiy so‘z yodlatish, multfilmlar va rolli o‘yinlar yaxshi samara beradi.

*O‘n yoshdan o‘n besh yoshgacha* til o‘rganuvchilar aynan maktab ta’limi jarayonida bo‘lganliklari sababli integrativ yondashuvdan foydalanish maqsadga aniq olib boradi. Albatta, bu vaqtida o‘qituvchi uchun katta mas’uliyat va mahorat zarur. Til o‘rgatuvchi o‘rganuvchilarining shu paytgacha nimalarni bilishi tasavvurlari va dunyoqarashi haqida ma’lumotga ega ekanligi unga qo‘l keladi.

*O‘n olti yoshdan ellik besh yoshgacha* til o‘rganuvchilar chegaralarning yo‘qligi, taqdim etish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarning ko‘pligi, dunyoqarashning kengligi va o‘ziga xos dunyoqarashga ega auditoriyaning mavjudligi qo‘l keladi. Madaniyatlararo muloqotga kirish nisbatan oson va natijali. Shu bilan bir qatorda ularning kognitiv, psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olish zarur.

## Xulosa

Xulosa qillib aytganda, o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish uchun mukammal darsliklar dasturlarni yaratish, video, audio materiallarni tayyorlash va o‘zbek tilini o‘rganuvchilarga qulay va xalqaro standartlarga mos holda taqdim etish



tilshunoslarimizning oldida turgan eng dolzarb va yechimini kutayotgan masalalardandir. Tilshunos, axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar, dizaynerlarning rejali hamkorligida masalaga tez va samarali yechim topib, xorijdagi o'zbek tili o'rganuvchilarning talabiga mos materiallar tayyorlashlari zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: 0 'qituvchi, 2012. — 432b.
  2. Ergasheva G. O'zbek tilini ikkinchi til va xorijiy til sifatida o'qitish masalalari: muammo, yechim, istiqbollar. Xorijliklar uchun O'zbek tilini o'rgatuvchi onlayn platforma yaratish asoslari. Toshkent. 2020-yil 20 may. 150- 155.
  3. Сакаева Л.Р., Баранова А.Р. Методика обучения иностранным языкам. Казань, 2016.
  4. Миролюбов А.А., История отечественной методики обучения иностранным языкам. – М.: Ступени, 2002. – С.11.
  5. Eltazarov, J. **O'zbek tilining germaniyada o'r ganilishi tarixidan.**
- Turklad. Turkiya. 2019.**
7. Xodjayev B. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.-T. Sano-standart. 2017.
  8. <https://phonexpert.ru/uz/kultura/obrazovatelnyi-process-ponyatiye-obrazovatelnogo-processa/>

